


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*70320102 – Xalqaro jurnalistika
magistratura mutaxassisligining malaka talablari*

Toshkent-2023



М

ISHLAB CHIQILGAN:

O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti;

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil “07” 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligining umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi malaka talabining qo‘llanilishi	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari	4
1.2.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari	4
1.2.2.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining ob’yeqtleri	4
1.2.3.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari	5
1.2.4.	70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo‘yicha magistrlar kasbiy vazifalari	5
2.	70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar	8
2.1.	Umumiy kompetensiyalar	8
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar	9
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar	9
2.3.1.	Kvalifikatsiya	10
	Bibliografik ma’lumotlar	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. 70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligining tavsifi

70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

1.1. Qo'llanish sohasi

1.1.1. 70320102 – Xalqaro jurnalistika magistratura mutaxassisligi **Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **70320102 – Xalqaro jurnalistika** magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalandaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;
- magistratura bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlar;
- oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan magistrlar va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining sohalari:

70320102 – Xalqaro jurnalistika – jurnalistika va axborot sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, milliy va xalqaro OAV tashkilotlari, davlat va nodavlat OAV tahririyatlarida jurnalistik faoliyat bilan shug'ullanish, televide niye va radio tahririyatlarida ko'rsatuv va eshittirishlar tayyorlash, axborot agentliklari sohasida axborot xizmati ko'rsatish, internet jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiya sohalarida axborot mahsulotlarini tayyorlash va uzatish, nashriyot-matbaa konsernlari va bosmaxonalarda muharrirlik faoliyati bilan shug'ullanish, faoliyati axborot xizmati ko'rsatish bilan bog'liq tashkilotlarda ish olib borish kabi majmualarni qamrab oladi.

1.2.2. 70320102 - Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistratura kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida hamda oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati va jarayonlar;
- O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi;
- ommaviy axborot vositalari, davlat boshqaruvi organlari, davlat va nodavlat organlari axborot xizmatlari,

- matbuot nashrlari va jurnalistik materiallar;
- radio eshittirish va teleko'rsatuvlar;
- axboriy va tahliliy janrlar;
- axborot agentliklari orqali tarqatiladigan yangiliklar;
- internet jurnalistikasi materiallari, saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, gipermatnlar;
- mediata'lism, mediamadaniyat, mediaetika;
- jamiyatda tezkor axborot almashinuv va ishonchli axborot bilan ta'minlash kabi jarayonlar.

70320102 –Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistratura kasbiy faoliyatlarining ob'yeqtleri:

- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazarii asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yirlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *Ilmiy-tadqiqot faoliyati;*
- *pedagogik faoliyat;*
- *milliy va xalqaro OAV tizimlarida jurnalistik faoliyat;*
- *internet tizimida jurnalistik faoliyati;*
- *noshirlik va muharrirlik faoliyati;*
- *tarjimonlik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyati .*

1.2.4. 70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha magistrlar kasbiy vazifalari:

70320102– Jurnalistika: xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'yeqtleri va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar va ilmiy-tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;
- namunaviy metodikalar va boshqalar bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazishi va ularning natijalarini tahlil qilish;
- ilmiy va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, refyerat va bibliografiyalarni tuzish;
- ilmiy seminarlar tahliliy jarayonida ishtirok etish;
- ilmiy mavzularga oid jurnallarga maqolalar tayyorlash;
- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosini, davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi; ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil taxlil qilish qibiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Pedagogik faoliyatda:

- milliy ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar bo'yicha o'z nuqtai nazarini og'zaki va yozma bayon etishi, milliy g'oyaning nazariy asoslarni anglagan holda "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot qurish" bosh g'oyasining mohiyatini hamda uning asosiy g'oyalar bilan mutanosibligi va farqini bilishi;
- tabiat va jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yirlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilishi;
- o'z faoliyatida me'yoriy huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini his qilishga yo'naltirilgan ijtimoiy mas'uliyat shakllangan bo'lishi;
- kasbiy faoliyatda o'zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, metodlarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishi;
- ta'lif sifati va samaradorligini oshirishga innovasion yondashishi;
- ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlashi;
- patent olish uchun ish me'yoriy hujjatlar tayyorlay olishi;
- davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;
- elektron (e-learning) va mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;
- pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish malakalariga ega bo'lishi lozim.

Milliy va xalqaro OAV tizimlarida journalistik faoliyatda:

- kasbiy faoliyatni rejalahtirish;
- ommaviy axborot vositalari (OAV), nashriyotlar, internet jurnalistikasida tezkor ijodiy faoliyatni muvofiqlashtiradigan uzlusiz kompleks jarayonini rejalahtirish va tashkillashtirish;
- milliy va xalqaro OAV tizimida faoliyat yuritishda zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashi;
- xorijiy tillardan birini ilmiy muloqot va kasbiy malaka almashish vositasi sifatida egallagan bo'lishi;

- axborotni to‘plash, saqlash, ularga ishlov berish va ulardan foydalanish usullarini egallashi;
- o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- axborot, bilim, ma’lumotni bir-biridan farqlash malakasiga ega bo‘lishi, axborot texnologiyalaridan foydalana olishi;
- bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- kundalik, haftalik va oylik nashrlar materiallari hamda turli publisistik matnlar ustida ishslash va qayta ishslash, baholashda ilg‘or zamonaviy usul va uslublarni takomillashtirish va tatbiq etish;
- turli tildagi OAV materiallarini tarjima qilish va ularni tahrir etish.

Internet tizimida jurnalistik faoliyatida:

- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishslashning asosiy metodlari, usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishslash;
- global kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bilan ishslash;
- yangiliklar va axborot saytlari kontentini yaratish va to‘ldirib borish;
- global tarmoqda rasmiy bloglar ochish va uning mazmunini boyitish;
- veb-sahifalar uchun yangiliklar, tahliliy materiallar yozish, foto, video va audiomateriallar yaratish.

Noshirlik va muharrirlik faoliyatida:

- nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlar, sohaga oid risola va monografiyalar bo‘yicha musahhih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;
- noshirlik muassasalarida tahrirchi va adabiy xodim bo‘lib ishslash;
- arxiv va adabiyot muzeylarida ilmiy xodim sifatida ishslash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;
- teatrda ssenariylarni o‘qish, tahrir qilish va rejissyor hamda aktyorlarga badiiy asar mohiyatini tushuntirish.

Tarjimonlik faoliyatida:

- ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklari, nashriyotlar, ilmiy-texnik axborot xizmati bo‘yicha tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar, jurnalistik materiallar va adabiyotlarni malakali tarjima qila olish;
- jurnalistika va xalqaro jurnalistikaga oid adabiyotlar bo‘yicha ilmiy-terminologik
- tushunchalarni erkin talqin va tarjima qila olishi;
- davlat tashkilotlari va davlatga qarashli bo‘lmagan xususiy korxona va tashkilotlarda chet
- tillardan og‘zaki va yozma tarjimonlik qilish.

Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatasiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirot etish;
- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;
- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid xujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli magistratura yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sohaga oid innovatsiyalarini amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;
- mehnat jarayonida xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ixtisoslikka mos mavzu bo‘yicha turli xizmatlarni ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

2. 70320102 – Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo‘yicha magistrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- o‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;
- internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
- pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalana bilish;

- mustaqil tadqiqotchilik faoliyatining amaliy ko‘nikmalarini hosil qilishi;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, o‘quv-tarbiya ishlarning interaktiv usullaridan foydalangan holda pedagogik faoliyat mahorati va ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- o‘quv jarayonini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlashni tashkil etish uquvi va ko‘nikmalarini hosil qilishi lozim.
- jurnalistika va axborot ta’lim sohasidagi magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni, uquv va ko‘nikmalarni shakllantirishi;
- jurnalistika va axborot ta’lim sohasidagi magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishi;
- magistratura mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarni bajarish, kasb faoliyatining ko‘zlangan natijalariga erishishda jarayonlarni modellashtirish va tizimli yondashish borasidagi ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalarni ta’minlashi kerak.
- ilmiy faoliyat bloki ilmiy tadqiqotlar metodologiyasi o‘zlashtirilishini, talabalar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta’lim muassasalarida jurnalistika va axborot sohasida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi;
- tadqiqot masalalariga oid axborotlarni izlash, ularni tahlil qilish va tizimlashtirish, umumlashtirish, haqqoniy axborot manbalari va yuqori mavqeli ilmiy jamiyatlar katalogini tuzishga o‘rgatishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;
- fanlar mutaxassislikning nazariy asoslari va innovation yondashuvlarini chuqur bilish, tushunish, baholash va tegishli xulosa va tavsiyalar chiqara olishni ta’minlashi;
- xalqaro axborot muhitida davlatimiz milliy manfaatlarini aks ettiradigan ilmiy asosli ma’lumotlarni chuqur tahlil qilish va baholashga yo‘naltirilgan bo‘lishi;
- gumanitar fanlardagi innovation yondashuvlarni xalqaro tajribalarini chuqur bilish va tushunish, baholash va tegishli xulosa va tavsiyalar berish;
- O‘zbekistonda va xorijda mustaqil tadqiqotlarni olib borish, chet el muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan o‘zaro aloqalar o‘rnatish va davlatimiz manfaatlariga javob beradigan ilmiy hamkorlikni amalga oshirish borasida **ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

2.3. Umumiyligi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Magistrlar umumiyligi va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko‘nikmalarni egallashi o‘quv rejasiga mantiqiy ketmasetlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o‘zlashtirish, amaliyotlarni o‘tish hamda boshqa o‘quv mashg‘ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bevosita umumiyligi va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – magistratura mutaxassisligidan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita mutaxassisligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, magistrlarning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorlprini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertasiyasi tayyorlash: Magistrlik dissertasiyasining mutaxassislik bo‘yicha muhim hamda istiqbolli mavzulariga bag‘ishlangan, ilmiy jihatdan asoslangan, metodologik yo‘llari belgilangan, mazmuni tizimli shaklda ilmiy tadqiqotning asoslarini, uning bajarilishini va olingen natijalarini o‘zida aks ettiradi. Bunda ilmiy faktlar har taraflama tahlil qilinadi va muayyan hodisaning ilmiy va amaliy ahamiyati isbotlanadi.

Mutaxassislik bo‘yicha qo‘yidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

Ilmiy-pedagogik ish – mutaxassislik bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayoniga tatbiq etish, amaliy ko‘nikma va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirish qaratiladi, shuningdek, o‘quv-uslubiy ko‘rsatmalar va o‘quv rejalarini tuzish, mutaxassislik bo‘yicha fanlardan nazariy, amaliy va mustaqil mashg‘ulotlarni o‘tkazish. Ilmiy-pedagogik ish oliy ta’lim muassasalarida va tashkilotlarning tadqiqot bo‘limlarida o‘tkazilishi mumkin.

Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – ilmiy va kasbiy kompetensiyalarni maqsadli ravishda takomillashtirish, mutaxassislik bo‘yicha ilmiy bilimlarni chuqurlashtirish, ilmiy sohadagi so‘nggi yangiliiklar, ishlanmalar va innovasion texnologiyalarni o‘rganish, shuningdek, eksperimental tadqiqotlar natijalariga ishlov berish, ularni tahlil qilish, xulosalar chiqarish va tavsiyalarni ishlab chiqish malakalarini takomillashtirish, tadqiqotchilik va mustaqil ilmiy izlanishlar malakalarini oshirishga qaratilgan.

2.3.1. Kvalifikatsiya: Xalqaro jurnalist, (tadqiqotchi-pedagog)

Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

Xalqaro jurnalistika, auditoriyani segmentlash, axboriy matbuot, axborot – kommunikasion boshqaruv, analiz, anketa, antrefile, argument, afisha, banal, xalqaro sharh, brifing, videorolik, videoplayer, geosiyosat, grafomaniya, dalillash, dezoriyentasiya, demagogiya, demoskopiya, de-fakto, de-yure, drayv-taym, bestseller, hududiy matbuot, bulvar jurnalizmi, virtual dunyo, Pablik rileyshnz, axborot globallashuvi, dezinformatsiya, jadidlar matbuoti, janr, jurnalist surishtiruvi, jurnalistikada deontologiya, jurnalistikada avtoritarizm, jurnalistik jingoizm, imijmeyker, interfaol jurnalistika, intervju-dialog, kompozisiya, kompromiss, kreativ, marketing kommunikatsiyasi, media-biznes, matbuot konferensiyasi, media-matn, konsensus, onlayn jurnalistika, personal jurnalistika, plyuralizm, postindustrial jamiyat, psixologik urush, press-reliz, reportaj, skeptisizm, stringer jurnalistika, tok-shou, faktologik janrlar, frilans, xronika, epitajli intervju, esse, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellash, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

**Ishlab chiqaruvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Rektor  Sh. Qudratxo'ja

“ ” 2023-yil

M.O'.




**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan
va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari
markazi direktori**

Sh.U. Yakubov 

“ ” 2023-yil

M.O'.


**O'zbekiston Milliy media assotsiatsiyasi
direktori**

A.A. Abutalipov 

“ ” 2023-yil

M.O'.

**O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti rektori v.y.b.**

B.G. Kulmatov 

2023-yil

M.O'.




**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi direktori**

A.A. Xodjayev 

“ ” 2023-yil

M.O'.

**Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti rektori**

I.U. Majidov 

2023-yil



**Toshkent davlat sharqshunoslik
universiteti rektori**

G.Sh. Rixsiyeva 

2023-yil

M.O'.



**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
70320102- Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari va o'quv
rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliv ta'lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste'molchilari o'rtaida**

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

"12" iyul

2023-yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori A.A. Xodjayev, O'zbekiston milliy media assotsiatsiyasi direktori A.A. Abutalipov, O'zbekiston milliy universiteti rektori prof. I.U. Majidov, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori v.v.b B.G. Qulmatov, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori G.Sh. Rixsiyeva, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori prof. Sh.T. Qudratxo'ja birlgilikda O'zJOKUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta'lim yo'naliشining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

70320102- Xalqaro jurnalistika mutaxassisligi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019/2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Mutaxassislik bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatalgan tartibda tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi direktori**

A.A. Xodjayev

O'zbekiston milliy media assotsiatsiyasi direktori

A.A. Abutalipov

O'zbekiston milliy universiteti rektori professor

I.U. Majidov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori v.v.b.

B.Qulmatov

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori

G.Rixsiyeva

**O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti rektori**

Sh.Qudratxo'ja